

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiaida huquqshunoslik
fani o'qituvchilari o'rtasida "Eng yaxshi huquq o'qituvchisi" ko'rik-tanlovini
o'tkazish tashkiliy guruh yig'ilishi
B A Y O N N O M A S I**

2024-yil 20-avgust

Samarqand sh.

Raislik qiluvchi: X.Turdibekov, filial direktor o'rinbosari.

A'zolar: O'.Xudayarov, A.Axmedov, M.Xolmatov, B.Quziboyev

Kotib: T.Yuldashev

KUN TARTIBI:

1. "Eng yaxshi huquq o'qituvchisi" ko'rik-tanlovi bo'yicha filialdagi ijtimoiy, tabiiy va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan ko'rik-tanlov natijalari haqida

Eshitildi: X.Turdibekovning axboroti.

- Tanlovda filial Ijtimoiy, tabiiy va jismoniy madaniyat kafedrasining 4 nafar professor-o'qituvchilari: dots. L.N.Eshonqulov, dots. S.Abduvohidov, dots. S.Yazdanova va f.f.f.d. (PhD) Y.Isomiddinovlar ishtirok etishdi. Ishtirokchilarning bilimlari Nizomda belgilangan me'zonlar asosida suhbat asosida baholandi. Tashkiliy guruh a'zolarining baholariga ko'ra umumiy baholash natijalari aniqlandi va guruh a'zolariga tanishtirildi.

Shundan so'ng, berilgan ma'lumotlar asosida Tashkiliy guruh a'zolari o'z munosabatlarini bildirishib o'tdi.

- | | |
|-------------------------|----------|
| 1. Dots. L.N.Eshonqulov | 87 ball; |
| 2. dots. S.Abduvohidov | 72 ball; |
| 3. dots. S.Yazdanova | 76 ball; |
| 4. PhD Y.Isomiddinov | 56 ball. |

Yuqoridagilardan kelib-chiqib, Tashkiliy guruh tomonidan "Eng yaxshi huquq o'qituvchisi" ko'rik-tanlovi g'oliblarini aniqlash bo'yicha

QAROR QILADI:

1. Quyidagi professor-o'qituvchilar Eng yaxshi huquq o'qituvchisi" ko'rik-tanlovi bo'yicha talabalar o'rtasida o'tkazilgan tanlov g'olibi deb topilsin:

"Ijtimoiy, tabiiy va jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti Eshonqulov Laziz Norqobil o'g'li

2. Tanlov natijalari ishtirokchilarga yetkazilsin (Mas'ul: "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri O'.Xudayarov).

3. Tanlov g'oliblari filial ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Nizom talabalari asosida rag'batlantirilsin.

4. Tanlov g'oliblarini taqdirlash filial talabalar ishtirokida tantanali ravishda amalga oshirilsin.

Tashkiliy guruh raisi

Kotibi

X.Turdibekov

T.Yuldashev

